

**TARBIYA FANINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI
O'QUVCHI -YOSHLARNI TARBIYALASHNING USQURTMA
DOMINANTASI SIFATIDA**

Abdupattayev Xasanboy Abduraxmonovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Tarix fakulteti

Yoshlar bilan ishlash

bo'yicha dekan o'rinbosari

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalqining milliy tarbiyasida dunyo (borliq) mohiyatning talqin qilish masalasi haqida so'z boradi. Unda dunyo (borliq) mohiyatning talqin qilishda ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan ilmiy-falsafiy, diniy qarashlar, yondashuv va ta'limotlar ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, milliy tarbiya, dunyo (borliq) mohiyatining talqini, olami g'ayb (yashirin olam), olami shuhud (ko'rinadigan olam), substansiya (javhar) va aksidensiya (javhar bo'lmagan oraz), dialektik materializm va ateistik tarbiya.

Dunyoni to'g'ri talqin qilish tarbiya jarayoni uchun juda muhim hisoblanadi. Dunyo (borliq) mohiyatining talqini borasida muayyan bir ta'limot tarbiya jarayoni uchun asos qilib olinmas ekan ushbu jarayon "boshi berk" ko'chaga kirib qoladi.

Bizningcha, milliy tarbiyamizning nazariy-metodologik asosi uchun ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan ta'limotlar asos qilib olinishi va kundalik va ilmiy iste'molda ushbu ta'limotlarni qo'llanilishi uchun imkoniyat yaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ajdodlarimiz, dunyo (borliq) mohiyati borasida shunday talqinlarni keltiradi. Xususan, Abu Nasr Farobiy "Bilki, (olamda) substansiya (javhar) va aksidensiya (javhar bo'lmagan oraz) hamda substansiya, aksidensiyani yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo'qdir"¹⁹, deya fikr bildirsa, Aziziddin Nasafiy "Olam o'zining avvalida ikki qismdan iborat: birinchi qismini olami g'ayb (yashirin olam), ikkinchi qismini olami shuhud (ko'rinadigan olam) deb ataydilar. Bu har ikki olamni miqdoriy va kulliy (umumiy) ma'nolarda turli nomlar bilan tilga oladilar"²⁰, deya ta'kidlaydi.

Ta'kidlash kerakki, dunyo (borliq) mohiyatiga aynan mana shunga o'xshash yondashuvlarni Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Ali inb Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin,

¹⁹ Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq. 1995. 5-bet.

²⁰ Qarang: Vestnik Yevropy, 1811, ch.55, №1, 47-bet. Iqtibos, N.Komilovning "Tafakkur karvonlari" (Toshkent, 1999, 264—265-betlar) kitobidan olindi

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdullar Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa ko'plab mutafakkir ajdodlarimizning qarashlarida ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda nafaqat mutafakkir ajdodlarimiz, balki butun xalqimiz tarixan dunyo (borliq) mohiyati bo'yicha olam bilan odam, moddiylik bilan ma'naviylik birligiga va ularning o'zaro aloqadorligiga ishonganlar. Ular Xudo olam va odamni yaratgan va o'zida mujassam qilgan, deb bilganlar. Bizning milliy tarbiyamiz tarixan mana shunday qarashlar asosida shakllangan. Darhaqiqat, rus sharqshunos olimlaridan biri S.S.Uvarov buni tasdiqlagan holda, "Barcha dinlar, hamma fanlar, butun falsafa Osiyodan kelib chiqqan, faqat Osiyogina ma'naviy dunyoning barcha katta xazinalarini paydo qiluvchi ajoyib zakovatni o'zida saqlab qolgan; bu yerda biz umumiy bilimlarning yaxlit va haqiqiy manbaini topa olamiz"²¹, deb yozgan edi.

Afsuski, sobiq Chor Rossiyasi bosqini va undan keyin sobiq SSSR davridagi dialektik materializm va ateistik tarbiya siyosati ajdodlarimizning dunyo (borliq) mohiyati borasidagi o'ziga xos talqinga putur yetkazdi. Bu hol xalqimizning milliy tarbiyasida uni ozuqlantiruvchi azaliy manbalarni uzilishiga sabab bo'ldi. Natijada milliy tarbiyamizga "ruslashish", "g'arblashish" yoki "ommaviy madaniyat" tendensiyalarini kirib kelishiga imkoniyat paydo bo'ldi.

Bizningcha, bugungi kunda milliy tarbiyamizni yanada yuksaltirish uchun uning nazariy-metodologik asosiga ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan qarashlarni oddiy fuqaro va yosh avlod uchun tushunarli shakl va mazmunda qayta jonlantirish lozim. Buning uchun avvalo, tarbiya jarayonida sobiq Ittifoq davri qoldiqlari (dialektik materializm va ateistik tarbiya)ning barcha shakllaridan voz kechish hamda mutafakkir ajdodlarimiz qarashlari asosida dunyo (borliq) mohiyati anglatuvchi yakdil fikrni shakllantirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Mazkur muammo mavjud bo'lganligi hamda ushbu muammo yechilmasa milliy tarbiya jarayoni nazariy-metodologik asosga ega bo'la olmasligidan kelib chiqqan holda ushbu maqolada dunyo (borliq) mohiyati talqin qilish bo'yicha quyidagi taklifni ilgari suramiz:

Bizningcha, dunyoga "Dunyo (borliq) bu - o'z tuzilishi va mohiyatiga ko'ra moddiy va nomoddiy unsur (element)lar majmuasidan iborat bo'lgan yaxlit (ikki yorti bir butun) voqeilikdir", deya ta'rif berish mumkin (mazkur ta'riflar Abu Nasr Farobiy, Aziziddin Nasafiy va boshqa mutafakkir ajdodlarimiz qarashlariga monand keladi).

Dunyo asosidagi moddiy unsurlar deyilganda inson sezgi organlari (besh turdagi sezgi organlar – retseptorlar: ko'z, quloq, til, burun, teri sezgilari) tomonidan sezib bo'linadigan barcha turdagi narsalar tushuniladi. Ushbu unsurlarni ilmiy tilda materiya tushunchasi orqali ham ifodalash mumkin. Ma'lumki, "materiya – borliqning moddiy shakli bo'lib, u olamdagi barcha moddiy obyektlarni, butun obyektiv reallikni ifoda

²¹ Abdullayeva M.N. va boshq. Falsafa: izohli lug'at. - T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. 212-bet.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

etuvchi eng umumiy tushunchadir. Materiya notirik tabiat ko'rinishida (jonsiz jismlar, minerallar, moddalar), tirik tabiat ko'rinishida (tirik organizmlar, jonli xujayralar, viruslar, bakteriyalar, o'simliklar, qushlar, hayvonlar) va ijtimoiy ko'rinishda (odamlar – jamiyat a'zolari) uchraydi"²².

Moddiy unsurlarga atrofimizdagi barcha tovush chiqaradigan, ta'm va xid beradigan, qo'l yoki teri sezgisi orqali sezib bo'linadigan, har xil rangga ega bo'lgan jamiki narsalarni misol qilib keltirish mumkin. Aniqroq qilib aytganda oq, qizil va boshqa rangdagi gullar, yoqimli yoki yoqimsiz tovush chiqaradigan barcha jonivorlar, shirin yoki nordon ta'mli mevalar, xushboy yoki yoqimsiz xidli narsalar, turli shakldagi, qattiq, yumshoq va boshqa shu kabi xususiyatlarga ega bo'lgan narsalar dunyodagi moddiy unsurlarga misol bo'ladi. Mazkur qarash Farobiyning aksidensiya (javhar bo'lmagan oraz) to'g'risidagi qarshilari bilan hamohang bo'lib, unda "Aksidensiyaning besh sezgi his etadi, ular o'rtasida hech qanday vosita yo'qdir, masalan ko'rish o'zicha rangni his etadi, shu bilan u oq va qorani bir-biridan farq qiladi; eshitish o'zicha baland hamda past ovozlarning farqini sezadi; ta'm-maza sezgisi turli ta'mlarni qabul qiladi, shirin va achchiq ta'mlarning farqini ajratadi; teri sezgisi predmetlarning holatini sezadi va ularning yumshoq yoki qattqlik holatini farq qila oladi"²³, deyiladi.

Dunyo (borliq) haqida fikr yuritayotganda u faqat moddiylik (materiya)dan iborat, deya xulosa qilib bo'lmaydi. Chunki, moddiylik dunyo asosidagi yagona unsur emas (binobarin, sobiq SSSR davridagi dialektik materializm ta'limotiga ko'ra materiya birlamchi ahamiyat kasb etgan).

Dunyo mohiyati va tuzilishini to'liq anglamoq uchun unda moddiy unsurlardan tashqari nomoddiy unsurlar ham mavjudligini hisobga olmoq lozim bo'ladi. Dunyo asosidagi ikkinchi unsur hisoblanmish nomoddiy unsurlar deyilganda moddiy unsurlardan farqli o'laroq inson sezgi organlari (besh turdagi retseptorlar: ko'z, quloq, til, burun, teri sezgilari) bilan sezib bo'lmaydigan, biroq real dunyoda mavjud bo'lgan, faqatgina aql-idrok bilan anglanadigan unsurlar tushuniladi. Nomoddiy unsurlarga misol qilib, imon, e'tiqod, vijdon, ibo, hayo, sabr, toqat, iroda va boshqa shu kabilarni keltirish mumkin. Dunyoda nomoddiy unsurlarning ikki: ijobiy (fazilatlar) va salbiy (illatlar) turlari uchraydi.

Dunyo asosida moddiy unsurlar bilan birgalikda nomoddiy unsurlar ham mavjudligini ta'kidlagan holda, shuni aytish lozimki, nomoddiy unsurlar moddiy unsurlardan farqli o'laroq hech qanday shaklga, ta'm, xid, rang va ovozga ega bo'lmaydi. Shu sababdan ularning mavjudligini inson sezgi organlari (besh turdagi retseptorlar: ko'z, quloq, til, burun, teri sezgilari) bilan aniqlab bo'lmaydi. Lekin, nomoddiy unsurlarni inson sezgi organlari tomonidan sezib bo'linmasligi ularni dunyoda mavjud emas deyishga asos bo'la olmaydi. Nomoddiy unsurlarda garchi shakl, ta'm, xid, rang va ovoz

²² Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr.,1993. –174 b.

²³ Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr.,1993. –174 b.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

kabilar mavjud bo'lmada biroq, ularda mazmun mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham ularning mavjudligi faqat aql-idrok orqaligina aniqlanadi. Mazkur nomoddiy unsurlar haqidagi ushbu qarashlar Farobiyning substansiya (javhar) to'g'risidagi qarshlariga o'xshaydi. Bu to'g'risida Farobiy "Substansiyani faqat aqi qabul qiladi va bunda aksidensiya aql uchun vositachi bo'lib xizmat qiladi. Aql ranglar ostida shu rangga ega bo'lgan narsa borligini, ovoz ketida ovozi kelayotgan narsa mavjudligini biladi, aqlning boshqa sezgilar bilan munosabati ham shuning kabidir"²⁴, deya fikr bildiradi.

Yuqorida keltirilayotgan dunyo (borliq) mohiyati talqin qilish bo'yicha takliflarimiz mohiyat va mazmuniga ko'ra mifologik, idealistik yoki diniy yohud dialektik-materialistik kabi ta'limotlar mazmuniga to'la mos kelmaydi. Mazkur qarashlarda diniy (Islom ta'limoti) asoslar ustun bo'lsada, ular ko'proq dualistik yondashuvga to'g'ri keladi. Ma'lumki, "dualizm (lotincha dualist – ikki yoqlama) – bir-biri bilan birlashtirib bo'lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik tamoyillar yonma-yon mavjudligini targ'ib qiluvchi ta'limot"²⁵ hisoblanadi.

Darhaqiqat, yuqoridagi dunyo (borliq) mohiyati talqin qilish bo'yicha takliflarimizda idealistik-diniy hamda materialistik ta'limotlar mazmunan birlashganini ko'rish mumkin. Ushbu yondashuv dualistik qarash bo'lib, mazkur qarash unsurlari "qadimgi "Avesto"dagi yaxshilik xudosi – Axuramazda va yomonlik xudosi – Axuramanlar kurashida"²⁶ ham ko'rish mumkin.

Mazkur maqolada ilgari surilgan qikrlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan, dunyo (borliq) mohiyatini to'g'ri talqin qilish tarbiya jarayoni uchun juda muhim bo'lib, bu tarbiya jarayoni uchun "kompas" vazifasini bajaradi. Binobarin, optimal bir ta'limot tarbiya jarayoni uchun asos qilib olinmas ekan ushbu jarayon "boshi berk" ko'chaga kirib qoladi. Bizningcha, milliy tarbiyamizning nazariy-metodologik asosi uchun ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan ta'limotlar asos qilib olinishi va kundalik va ilmiy iste'molda ushbu ta'limotlarni qo'llanilishi uchun imkoniyat yaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchidan, milliy tarbiya jarayonida dunyo (borliq) mohiyati talqin qilish bo'yicha tarixan shakllangan (mifologik, idealistik-diniy, dialektik-materialistik, dualistik) ta'limotlar ichida dualistik ta'limot eng optimal ta'limot hisoblanadi. Chunki, u:

- bizning diniy (Zardushtiylik dini hamda Islom dinidagi) qarashlarimiz hamda ajdodlarimizning olam va odam to'g'risidagi diniy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini to'liq o'zida aks ettiradi;
- dunyo (borliq) mohiyati talqin qilish bo'yicha ham idealistik-diniy hamda materialistik ta'limotlar o'zaro va mantiqan bog'laydi. Bu xol fanlarni o'qitilishi va ilmiy

²⁴ Falsafa ensiklopedik lug'at. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 100 b.

²⁵ Abdullayeva M.N. va boshq. Falsafa: izohli lug'at. - T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. 136-bet.

²⁶ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч.– Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 135.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

ijodda materialistik ta'limotlaridan ham va ayni vaqtda tarbiya jarayonida idealistik-diniy ta'limotlardan ham to'liq foydalashish imkonini beradi;

– dualistik ta'limotning qo'llanilishi sobiq Ittifoq davri qoldiqlari (dialektik materializm va ateistik tarbiya)ning barcha shakllaridan voz kechish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr.,1993.
2. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq. 1995.
3. Vestnik Yevropy, 1811, ch.55, №1,
4. Abdullayeva M.N. va boshq. Falsafa: izohli lug'at. - T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009.
5. Falsafa ensiklopedik lug'at. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.